# BOBURIYLAR SULOLASI MONARX-ELIYA QATLAMINING BOBURIY MALIKA AYOLLAR TA'LIMIGA BO'LGAN MUNOSABATI – ZEBUNNISO DAVRI BEGIM MISOLIDA

Abdiqahhorov Sardor Azizbek O'g'li
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (MOXT-1) 3-kurs talabasi*
*Ilmiy rahbar: DSc Odilov B., Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti; +998942023029*

***Annotatsiya:*** *Qariyb 350 yil Hindiston yarimoroli va unga tutash bo'lgan hududlarda hukm surgan Boburiylar imperiyasi jahon tarixi sahnasida yuksak o'rin egallagan. Bobur Mirzo boshlab bergan ''davlat tuzish'' ishlarini uning vorislari: Humoyun, Buyuk Akbar, Shoh Jahon va Avrangzeb Olamgir kabi yetakchi hukmdorlar takomillashtirishgan. Boburiylar imperiyasi ''turli konfessiyali'' boshqaruv hisobiga doimiy ravishda jamiyat ijtimoiy munosabatlarini takomillashtirib, doimiy progressiv etno-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarni namoyon qilib kelgan. Yagona monarx tomonidan ''fuqaro'' hayoti uchun, mamlakatning iqtisodiy taraqqiy qilishi uchun tizimli islohotlar va hamma uchun bir xil majburiy bo'lgan qonunlar tizimi doimiy amalda tatbiq etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kutubxona. Bedil, progressive, Zebunnisobegim, she'r, kapital, intelligent, hofiza, safar, tarjiman, misra, qonun, Avrangzeb, manba, ta'sir, qo'rg'on, qiz, raqam ,''feminizm'', moziy.*

***Аннотация.*** *В статье рассматривается отношение монарха и элиты династии Бабуридов к образованию женщин царской семьи на примере Зебуннисо-бегим. Освещаются созданные для неё образовательные условия, изучение религиозных, литературных и точных наук, формирование личной библиотеки, поддержка учёных и поэтов, а также её научное и литературное наследие. На примере Зебуннисо показано значение покровительства просвещению и женскому образованию в общественно-культурной жизни государства Бабуридов.*

***Ключевые слова:*** *Бабуриды, Зебуннисо-бегим, женское образование, библиотека, поэзия, просвещение, Аврангзеб, научное наследие.*

***Abstract.*** *The article examines the attitude of the Mughal monarch and elite toward the education of royal women through the example of Zeb-un-Nissa Begum. It discusses the educational conditions created for her, her study of religious, literary and exact sciences, the development of her personal library, her support for*

*scholars and poets, and her scholarly and literary legacy. Zeb-un-Nissa's experience demonstrates the importance of patronage for learning and women's education in the social and cultural life of the Mughal state.*

***Keywords:*** *Mughal dynasty, Zeb-un-Nissa Begum, women's education, library, poetry, enlightenment, Aurangzeb, scholarly legacy.*

**Kirish**

Dunyo tarixida so‘nggi o‘rta yuzyilliklar va yangi davr yuzyilligi bosqichida mamlakatning gullab yashnashi yoxud tarix sahnasidan supurilib yuborilishi ko‘p jihatdan hukmdor va uning elitasiga bog‘liq. Monarx atrofida aslzoda, ko‘p hollarda o‘z yaqin-qarindoshlaridan iborat bo‘lgan intelligentlar qatlami davlatning holatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Bunday qatlam ilm-fan taraqqiyotiga yo‘l ochadi va bu yo‘lning boshida o‘zi turadi. Ayni mana shu yuqorida aytilgan fikrlarga Avrangzeb Olamgir va uning to‘ng‘ich qizi Zebunnisobegim namunasi misol bo‘la oladi.

**Asosiy qism**

Zebunnisobegim - (1638-1702) Avrangzeb Olamgirning katta qizi. Shoira, ma’rifatparvar, faylasuf, xattot, filolog va pedagog. Ota tomondan Boburga, ona tomondan esa Boburning qizi Gulbadanbegimga borib taqaladi, aslzoda. Zebunniso tug‘ilgan payt otasi Dekan viloyati hokimi bo‘lgan. Yoshlik yillarida otasi va uning aka-ukalari o‘rtasida ko‘plab toj-u taxt tuchun kurashlarning bevosita guvohi bo‘ladi[26]. Avrangzeb keyinchalik, Zebunnisoning o‘ta hur fikrlashidan va a‘yonlarga ta’sir ko‘rsatishidan hadiksirab uni Salimgarhi qo‘rg‘onida uy qamog‘iga mahkum qiladi[27]. Aslida Avrangzeb katta farzandi Zebunnisoni jonidan ortiq ko‘rgan, yoshligidan unga alohida ta’lim olishi uchun shaxsiy murabbiylar yollatgan. Dastlabki savodini u Hafiza Maryam qo‘lida chiqaradi. Uch yil davomida Qur’oni Karimni yod olib 7 yoshida hofiza ‘‘martabasi’’ga erishadi. Buning sharofatiga hukmdor Zebunnisoga o‘ttiz ming, ustozi Maryamga o‘ttiz ming oltin tanga mukofot belgilaydi[28]. She’riyatga mayli bo‘lgan Zebunniso yoshligidan Dehlaviy, Bobur, Navoiy asarlarini o‘rganadi. Ularga havas qilib o‘zi she’r yozishni mashq qiladi. Avrangzeb o‘z saroyida Hofiz Sheroziy she’rlarini ta’qiqlagan ersa-da, qizi uchun Fors, Hind vodiysi va Kashmir atrofidagi shoirlarni topishni va ularning qiziga muallimlik qilishini tayinlagan[29]. Mirzo Bedil bilan ham fikrlar almashgan va keyinchalik Bedilning yagona qizini o‘z xohishiga ko‘ra o‘z tarbiyasiga olgan. Matematika, astrnomiya kabi aniq fanlarni ham qunt bilan o‘zlashtirgan

[26] Turg‘un Fayziyev. Temuriy malikalar. T.1994. 40-b
[27] Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. T.2022. 208-b
[28] Raman, Sista Anantha. Women in India A Social and Cultural History. D.2009. 10-b
[29] Mirsa, Rekha. Women in Mughal India. Munshiram Manoharlal. D.1967. 90-b

Zebunnisoning kutubxonasi o‘z davrida eng yiriklaridan biri bo‘lgan. Kutubxonasida olimlar, shoirlar, intelligent jamiyat zukkolarini to‘plab doimiy ular bilan ilmiy majlislar tashkil qilgan. Kutubxonasida Qur’oni Karimni xattot uslubida ko‘chirgan. Zebunnisobegim hukmdor zotidan bo‘lgani uchun shaxsiy hisobida katta miqdorda kapital jamg‘arilgan. Shuning uchun har yili fuqarolarni haj safariga o‘z hisobidan yuborgan. Olim, jamiyat ziyolilariga va kutubxona hamjamiyatiga doimiy oylik maoshi to‘lab turgan[30]. Ilmiy merosiga tasavvuf falsafi, musiqa ilmi va tafsir ilmiga oid asarlar va she’riy devon majmuasi kabi asarlar kiradi. Ilohiyot ilmi va tasavvuf filosofiyasi aks etgan “Munis ul-arvoh” va “Zebr ut-tafosir” to‘liq nashr etilgan. “Maxfiy” taxallusi orqali yozilgan she’rlari taxminan 7560 misrani tashkil etadi. “Devoni Maxfiy” to‘plami 1958-yilda “Majmuai she’rho” nomi bilan Tojikistonda chop etilgan. Hindiston musulmonlari uchun asosiy manba “Fatavoyi Olamgiriy” asarini fors tiliga tarjima qildiradi[31]. Zebunnisobegimning ilmiy merosini taqiq qilish va yangi ilmiy asarlarini izlab topish ishlari davom ettirilmoqda. Afsuski, bugungi kunda Zebunnisobegim davrini to‘liq yoritib beradigan aniq manba mavjud emas. U hayotining oxirini Salimgarhi qo‘rg’onida kechiradi. Yetti kun davom etgan hastalikdan so‘ng 1702-yil (hijriy 1113-yil) bu olamni tark etadi. Qabri hozirda Dehli yaqinida joylashgan. Zebunnisobegim vafot etgach, unga atab g‘azal bitiladi. G‘azaldagi arab alifbosidagi harflarning raqami 1132. Ya’ni “Zebunniso bu hukmi qazo”. “Zeb” harflari raqami 19. 1132 dan 19 ni ayirsak 1113 hosil bo‘ladi. Milodiy yil hisobida Zebunnisobegim vafot etgan yil-1702 hosil bo‘ladi.

**XULOSA**

Zebunnisobegim misolida ko‘rib o‘tgan tarixiy faktlarimiz Boburiylar davlatida ilm-fanga bo‘lgan e’tibor va ayniqsa, mamlakatdagi ayollar ta’lim olishiga bo‘lgan ahamiyat qay darajada ekanligining bir belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Boburiy malikalar doimiy ravishda o‘z davrining yetuk ustozlaridan ta’lim-tarbiya olishganligi va bu holat institusional (tizimli) ravishda yo‘lga qo‘yilganini boshqa Boburiy malikalar hayot yo‘llaridan ham bilib olishimiz mumkin. Bugungi kunda “Feminizm” atamasi bilan bog‘liq dunyo siyosatida yer yuzida ayollar o‘z insoniy, ta’limiy huquqlarini bilishi va uni himoya qilishi kerakligi haqida uqtirilmoqda. Ta’lim olish, ilm-fanni yuksaltirish kabi vazifalarni o‘zlarining eng birinchi qilishi kerak bo‘lgan farz amali sifatida unga og‘ishmay rioya etgan moziydagi Boburiylar sulolasi nafaqat o‘tmish balki, bugungi dunyo uchun ham xolisona namuna sifatida tan olinmog‘i zarur.

[30] To‘xtasin Jalolov. O‘zbek shoiralari. T. 1970. 344-b
[31] The Diwan of Zeb-un-Nissa, by Magan Lal and Jessie Duncan Westbrook. 1913.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turg‘un Fayziyev. Temuriy malikalar. T.1994. 40-b
2. Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. T.2022. 208-b
3. Raman, Sista Anantha. Women in India a Social and Cultural History. D.2009
10-b.
4. Mirsa, Rekha. Women in Mughal India. Munshiram Manoharlal. D.1967.
5. To‘xtasin Jalolov. O‘zbek shoiralari. T. 1970. 344-b
6. The Diwan of Zeb-un-Nissa, by Magan Lal and Jessie Duncan Westbrook. 1913.
7. Nath, Renuka. Notable Mughal and Hindu women in the 16th and 17th centuries A.D. Dehli.1990
8. Smith, Paul. Makhfi The princess Sufi Poet Zebunnissa. Book Heaven, 2012